TIJORAT BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH VA HISOBOTINI TUZISHNI TAKOMILLASHTIRISH ҚOGON BRB BXM MISOLIDA

To'xtayev Furqat Boxodirovich
Bank-Moliya akademiyasi 2-kurs magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada banklar faoliyatida muhim o‘rin tutuvchi buxgalteriya hisobi va hisobotini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan. Unda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash,hisobotning tuzilmasini tahlil qilish, buxgalteriya hisobi standartlariga mos ravishda hisob yuritishni tashkil etish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari moliyaviy hisob yuritish amaliyotini optimallashtirish, ichki audit tizimini mustahkamlash hamda bank faoliyatining ishonchliligi va ochiqligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Tijorat banklari, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, moliyaviy ko‘rsatkichlar, balans tahlili, IFRS, Basel me’yorlari, moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot talili,BRB bank

Kirish

Hozirgi kunda banklarda buxgalteriya hisobining yuritilishi, buxgalteriya ishining to‘g'ri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi bankning o'z vazifalarini to‘g'ri bajarishinidan dalolatdir. Har bir korxona va tashkilot kabi banklarda ham buxgalteriya hisobi olib boriladi.Banklarni buxgalteriya hisobisiz tassavur qilib bo’lmaydi. Banklarda buxgalteriya hisobining o’rni beqiyos. Buxgalteriya hisobi orqali bank har birta bo’limni nazorat va taftish qilib hisobot tuzadi. Buxgalteriya hisobi keng tarmoqli sohalardan hisoblanadi. Banklarda buxgalteriya hisobina faqat provodkalar berish, kunlik hujjat aylanishidan boshlab to hisobotgacha o’z ichiga oladi.

Banklar tizimida buxgalteriya hisobi yuritish ishini to’g’ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Chunki buxgalteriya hisobi va nazoratning puxta yo’lga qo’yilishi bankning o’z vazifalarini to’g’ri bajarishini ta’minlaydi. Buning uchun buxgalterlardan muayyan bilimlar, buxgalteriya hisobi va hisobotining asosiy tamoyillari hamda uslublarini tushunish talab qilinadi. Buxgalteriya hisobining yuritilishi, buxgalteriya ishining to’g’ri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi bankning o’z vazifalarini to’g’ri bajarishini, mavjud va bo’lg’usi investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar, shuningdek, bank rahbariyati va xodimlari uchun bank faoliyatiga haqqoniy baho berish imkonini yaratadigan aniq va foydali axborot olishni ta’minlaydi.

Bank buxgalterıya hisobi ma'lumotlaridan nafaqat bank mijozlari, aktsionerlari, bank boshqaruvchilari, soliq organlari balki mamlakat bo'yicha yig‘ilgan tijorat banklari moliyaviy hisobot ma'lumotlarining umumlashgan ko‘rsatkichlaridan Moliya vazirligi, Markaziy bank, davlat boshqaruv organlari foydalaniladi. Chunki, tijorat banklari moliyaviy hisobotlarida yig'ilgan ma'lumotlar xo‘jalik yurituvchi subyektlaming moliyaviy mablag'lari xarakati, berilgan kreditlar, qilingan investitsiyalar, pul aylanishini, debitorlik va kreditorlik qarzlarning xolatini ko‘rısh mumkin**.**

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Ushbu tadqiqotning umumiy maqsadi — tijorat banklarining buxgalteriya hisobi va hisobotini qilish amaliyotini tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda ilg‘or xalqaro tajriba asosida ularni takomillashtirish bo‘yicha nazariy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot mazmunidan kelib chiqib, quyidagi ilmiy vazifalar belgilandi:

1. O‘zbekiston tijorat banklari buxgalteriya hisobi va hisobotini amaliy tahlil qilish, moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida banklar hisobotlarining ishonchliligini baholash;
2. Xalqaro tajriba asosida bank buxgalteriya hisobi va hisobotini takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash, ularni milliy amaliyotga moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish (Bank for International Settlements, 2021; Ahmed, 2021);
3. Bank buxgalteriya hisobining axborot texnologiyalariga asoslangan zamonaviy shakllarini joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning mazkur vazifalar asosida olib borilishi, O‘zbekiston bank tizimining barqarorligini ta’minlash, hisobotlarning shaffofligini oshirish va risklarni samarali boshqarish mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritishda ushbu vazifalarning to'liq va to‘g'ri bajarilishi bank faoliyatini rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Banklar moliyaviy vositachilar sifatida aktivlar va majburiyatlar balansini yuritadilar. Ayniqsa, bank majburiyatlari (depozitlar, olinma kreditlar va boshqalar) ulkan ahamiyatga ega bo‘lib, ular orqali banklar mablag‘ jalb qiladi va iqtisodiyotga kredit ajratadi. Shu bois bank majburiyatlarini to‘g‘ri buxgalteriya hisobida aks ettirish va ularning ishonchli auditini ta’minlash moliyaviy tizim barqarorligi hamda manfaatdor tomonlar ishonchi uchun muhimdir. Bank buxgalteriya hisobining nazariy asoslari va audit konsepsiyalari rivoji davomida klassik tamoyillar ham, zamonaviy yondashuvlar ham shakllangan. Ushbu sharhda bank majburiyatlari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi. Sharh davomida umumiy hisob va audit nazariyalari, xalqaro standartlar (IFRS – Xalqaro

moliyaviy hisobot standartlari, Basel me’yorlari) hamda klassik va zamonaviy manbalardagi asosiy g‘oyalar chuqur tahlil asosida yoritiladi.

Banklar o'z faoliyatini asosan chetdan jalb qilingan mablag'lar hisobiga amalga oshirishi bank buxgalteriyasiga o'z ta'sirini ko‘rsatadi. Shu sababli, bank buxgalteriya hisobvaraqlari rejasidagi hisobvaraqlarning aksariyati mijozlar mablag'larni hisobga olishga mo ljallangan. Banklar bankłararo bozorda raqobatning kuchayishi, bank operatsiyalarning ko'payishi, xizmat ko‘rsatish sifatining oshishi, har bir mijoz uchun kurash ketayotganligi o'z faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilish, tahlil qilish asosda yangi bank xizmatlarini taklif qilish, yangi bank filiallarini ochish, samarasiz faoliyat ko'rsatayotganlarini esa yopish, mini banklarni ochish hamda bankni rivojlantirish uchun barcha choratadbirlar ko‘riladi. Tijorat banklari faoliyati tahlil qilinayotganda ma'lumotlar tezkorlik bilan olish imkoniyati mavjudligi bevosita tahlil uslubiyotiga tasir ko‘rsatadi, Shuningdek, bank buxgalteriya hisobi kompyuterlashtirilganligi ma'lumotlarning tez qayta ishlash imkoniyatini yaratadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda kombinatsiyalashgan yondashuv qo‘llanilgan bo‘lib, unda nazariy-falsafiy tahlil va empirik kuzatishlar uyg‘unlashtirildi. Bu esa mavzuning har tomonlama chuqur o‘rganilishini ta'minladi. Nazariy qismda ilg‘or ilmiy qarashlar va xalqaro standartlar asosida bank majburiyatlari mohiyati va ularning hisobi yoritildi.

Empirik qismda esa O‘zbekiston tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, statistik ma’lumotlari asosida tahlil o‘tkazildi. Tadqiqot ob’ekti sifatida tijorat banklarining buxgalteriya hisobi va hisobotini taomillashtish amaliyoti tanlangan bo‘lib, predmet esa ushbu hisobot tizimida balans va moliyaviy natijalar shakllanishi, tasnifi va tahlili jarayonidir. Tadqiqot dizayni aynan shu predmet doirasida tizimli yondashuv orqali amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti va moliyaviy tizimini mustahkamlash jarayonida tijorat banklarining roli beqiyos bo‘lib, ular orasida AJ “Asaka bank” alohida tarixiy va institutsional o‘rin egallaydi. Bank ichki boshqaruv tizimini mustahkamlash, ayniqsa risklarni boshqarish, ichki nazorat shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurashish kabi elementlarni kuchaytirish ham faoliyat samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omillardan biridir. Shu bilan birga, bank xodimlarining salohiyatini oshirish, ularni malakali va zamonaviy bilimlarga ega kadrlar bilan to‘ldirish, doimiy o‘qitish va rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish – inson kapitalini samarali boshqarish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida xizmat sifati, mijozlar bilan aloqa darajasi va institutsional ishonchni mustahkamlaydi.

1 –jadval

Kogon BRB BXMda asosiy ko‘rsatkichlar tahlili (mlrd so‘mda)

Yil	Aktivlar jami	Kredit va lizing (sof)	Depozitlar jami	Ustav kapitali	Foyda (sof)
2021	46 801 mlrd	29 018 mlrd	25 209 mlrd	5 970 mlrd	-444 mlrd zarar
2022	49 377 mlrd	31 509 mlrd	27 169 mlrd	5 970 mlrd	580 mlrd foyda
2023	52 145 mlrd	40 074 mlrd	29 431 mlrd	5 858 mlrd	662 mlrd foyda
2024	58 093 mlrd	38 113 mlrd	32 144 mlrd	5 970 mlrd	714 mlrd foyda
2025 (mart)	59 480 mlrd	38 904 mlrd	33 421 mlrd	5 970 mlrd	765 mlrd foyda

Manba: “BRB “banki uz veb-sayti ma’lumotlari

Yuqoridagi jadvaldan ko’rinib turiptiki 2021 yilda jami aktivlar 46,8 trln so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2025 yil martiga kelib ular 59,5 trln so‘m ga yetdi. Bu ko’rsatkich 4 yil ichida hajmi qariyb 27% ga o‘sdi. Eng katta o‘sish 2023–2024 yillarda kuzatildi (52,1 trln dan 58,1 trln so‘mga). 2024 yilda 58 093 mlrd so’mni tashkil qilgan.

Kredit va lizing portfeli 2021 yilda 29,0 trln so‘m,2022 yilda 40 074 mlrd so’mni tashkil etgan bo’lsa,2023 yilda 40 074 mlrd so’mni tashkil etgan.Bu ko’rsatkich ham o’zgarmagan. 2025 yil martida 38,9 trln so‘m ga yetdi.2023 yilda portfel keskin ko‘payib, 40,1 trln so‘m ga chiqdi, biroq 2024 yilda biroz qisqardi.

Depozitlar hajmi 2021 yildagi 25,2 trln so‘m dan 2025 yil martida 33,4 trln so‘m ga oshgan.2022 yilda 27 169 mlrd so’mni tashkil etgan. 2023 yilda 29 431 mlrd so’m bo’lgan.Yiliga o‘rtacha 6–8% o‘sish kuzatilmoqda, bu barqaror mijoz bazasini ko‘rsatadi.Banklarda qancha ko’p depozit jalb qilinsa ,shuncha moliyaviy barqarorlikka erishadi.2024 yilda 32 144 mlrd so’mni tashkil qilgan bo’lsa ,2025 yilda 33 421 mlrd so’m bo’gan.Bu ko’rsatkich 2024 yilga nisbatan 277 mlrd so’mga oshgan.

Kapitalni tahlil qiladigan bo’lsak ya’ni ustav kapitali deyarli o‘zgarmagan . 2021 yildan 2025 yilgacha 5,9 trln so‘m atrofida.Bu kapital yetarlilik ko‘rsatkichini mustahkamlash zarurligini anglatadi.2022 yilda 2021 yilda qancha bo’lsa shu summani tashkil etgan.2023 yilda 5 858 mlrd so’mni tashkil etgan.2024 yilda 5 970 mlrd so’mni tashkil etgan .Bu ko’rsatkich 2025 yilda ham shu summani tashkil etgan 5 970 mlrd so’mni,ya’ni o’zgarmagan.

2-jadval

Valyuta risklari bo‘yicha moliyaviy pozitsiyalar (2023–2024)

31 dekabr 2024 yil holatiga

Modda	AQSh dollari	Evro	Boshqa valyutalar	O‘zS	Jami
Naqd pullar va ularga teng aktivlar	5 582 151	1 615 364	289 333	1 109 615	6 965 484
Boshqa banklardagi mablag‘lar	2 582 451	182 818	-	16 939	1 778 707
Mijozlarga berilgan kreditlar	25 483 126	9 823 643	684 476	-	36 043 358
Investisiya qimmatli qog‘ozlari	393 206	-	-	1 968 818	2 362 024
Boshqa moliyaviy aktivlar	9 831	6 330	305 626	1 232	323 019
Jami monetar aktivlar	30 349 692	14 295 537	1 279 435	23 922 792	68 873 457
Boshqa banklarga to‘lovlar	2 546 091	1 109 848	875 316	1 352 569	5 883 824
Mijozlarning depozitlari	14 747 095	937 558	406 154	5 652 737	21 743 544
Qimmatli qog‘ozlar	4 970 366	-	-	3 365 975	8 336 341
Qarz vositalari	6 439 056	3 160 060	174 988	5 974 433	15 748 537
Subordinasiyalangan qarz	-	25 401	-	91 883	117 284
Jami monetar majburiyatlar	30 152 699	14 637 867	1 455 758	18 084 283	64 331 608
Tug‘ilib chiqadigan vositalar	-	-	-	1 211 810	1 211 810
Netto-pozitsiya	(163 007)	(342 330)	61 677	4 737 598	4 293 938

Manba: cbu.uz- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki veb-sayti ma’lumotlari

2024 yil holatiga BRB BXMning valyuta risklarini boshqarish siyosati bankning tashqi va ichki valyuta ekspozitsiyalarini aniq hisoblash, ularni minimallashtirish va ehtiyot choralarini ko‘rish tizimlariga asoslangan. Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, bankning asosiy monetar aktivlari - ya'ni, valyutadagi moliyaviy aktivlari - AQSh dollari va evroda to‘plangan. Xususan, bankning dollardagi aktivlari 30,3 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu valyutadagi aktivlar ichida eng katta ulushga ega.

3-jadval


Kogon BRB BXMda depozitlar qoldig‘i, turlari bo‘yicha (mlrd. so‘mda)

Sana	Jami	shu jumladan:		
		talab qilib olinguncha	jamg‘arma	muddatli
1	2	3	4	5
01.01.2023 y.	216 737,5	100 683,3	23 289,8	92 764,5
01.01.2024 y.	241 686,6	88 036,0	24 051,2	129 599,4
01.01.2025 y.	308 692,3	104 887,5	29 247,9	174 556,8

Manba: cbu.uz- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki veb-sayti ma’lumotlari.

2023–2025-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozitlar bo‘yicha umumiy hajmi barqaror o‘sishda davom etdi. 2023-yil boshida jami depozitlar hajmi 216,7 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil boshiga kelib bu ko‘rsatkich 308,7 trillion so‘mga yetdi. Bu esa ikki yil ichida 92 trillion so‘mlik yoki 42,4 foizlik o‘sishni anglatadi. Depozitlar miqdorining o‘sishi bank tizimiga bo‘lgan ishonchning mustahkamlanayotgani, aholining va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank xizmatlaridan foydalanish darajasi oshib borayotganini ko‘rsatadi. Ammo bu o‘sish faqat umumiy miqdorda emas, balki depozit turlari bo‘yicha tarkibda ham sezilarli siljishlarga sabab bo‘ldi.

1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining jami majburiyatlarining jami aktivlarga nisbati.



Manba: cbu.uz- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki veb-sayti ma’lumotlari.

Xavf omili va tavsiyalar:

• Yuqori darajadagi **majburiyatga tayanish** bank uchun **likvidlik va moliyaviy mustahkamlik risklarini** oshiradi, ayniqsa muammoli kreditlar ko‘paygan sharoitda.

• **Tavsiya:** Tijorat banklari o‘z kapital bazasini kuchaytirish, subordinar qarzlar va aksiyadorlik kapitali ulushini oshirish orqali ushbu nisbatni **80% dan past** darajaga tushirishga intilishi lozim.

O‘zbekiston tijorat banklarining majburiyatlarining aktivlarga nisbati yuqori darajada (85% atrofida) bo‘lib qolmoqda. Bu bank tizimining qarz mablag‘lariga kuchli tayanishini anglatadi va moliyaviy barqarorlik nuqtai nazaridan diqqat bilan monitoring qilinishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkichdir.

XULOSA VA TAKLIF

Bank tizimi barqarorligi va samaradorligi har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanishi sharoitida banklarning moliyaviy majburiyatlarini hisobga olish va audit qilish jarayonlarining sifati va shaffofligini oshirishga e’tibor qaratish zarurati ortmoqda. Bank majburiyatlarini hisoblash va audit qilishni takomillashtirish iqtisodiy barqarorlikni oshirish, xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo‘yicha takliflar

1. Bank buxgalteriya hisobini raqamlashtirish va avtomatlashtirish

O‘zbekiston tijorat banklarida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish jarayonlari hali to‘liq amalga oshirilmagan bo‘lib, ko‘pchilik banklarda qisman qo‘lda hisob-kitob yuritiladi. Bu esa inson omilining xatoliklari ehtimolini oshirib, vaqt sarfini ko‘paytiradi. Shu sababli, barcha tijorat banklarida majburiyatlarni hisobga olish va monitoring qilish uchun yagona raqamli platformalarni joriy qilish lozim. Buning uchun Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun standartlashtirilgan avtomatlashtirilgan dasturlar tavsiya qilinishi kerak.

Xususan, ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlarini qo‘llash orqali bank majburiyatlarini real vaqt rejimida nazorat qilish va ularning hisobotini shakllantirish jarayonlarini avtomatlashtirish mumkin. Bu esa banklarning moliyaviy holatini muntazam ravishda nazorat qilish imkonini beradi.

2. Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini xalqaro moliyaviy institutlar bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish uchun Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablarini majburiyatlar hisobi sohasida ham to‘liq joriy etish zarur. Jumladan, IFRS 9 (“Moliyaviy instrumentlar”), IAS 37 (“Majburiyatlar va shartli majburiyatlar”) standartlari asosida majburiyatlarni hisoblash tizimini ishlab chiqish va qo‘llash zarur.

Xalqaro standartlarga o‘tish orqali banklarning moliyaviy ko‘rsatkichlari yanada shaffof bo‘ladi va xorijiy investorlar uchun moliyaviy hisobotlarga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

3. Bank buxgalteriyasini baholashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash

Majburiyatlarni baholashda sun’iy intellekt (AI) va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash (Big Data) texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish lozim. Bunday zamonaviy texnologiyalar banklar faoliyatidagi majburiyatlar bilan bog‘liq risklarni tezroq aniqlash va baholash imkonini beradi. Bu esa banklarning risk boshqaruvi va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi va optimallashtiradi.

4. Banklarning moliyaviy hisobotlarini shakllantirishda integratsion yondashuvni joriy qilish

Bugungi kunda banklarda majburiyatlar hisobotlari asosan alohida hisob yuritish tizimlari yordamida shakllantirilmoqda. Natijada moliyaviy hisob-kitoblarda texnik xatoliklar va tafovutlar yuzaga kelishi mumkin. Buni oldini olish maqsadida yagona integratsion moliyaviy hisob tizimini yaratish zarur. Bunday yondashuv moliyaviy hisobotlarning to‘liqligi, aniqligi va ishonchliligini oshirib, moliyaviy xavflarni sezilarli darajada kamaytiradi.

5. Kadrlar malakasini oshirish va treninglar tashkil etish

Banklardagi buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish uchun kadrlarning malakali bo‘lishi muhim. Shu sababli, banklarda muntazam ravishda xodimlar uchun treninglar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

Buxgalteriya hisobini yanada samarali va sifatli yuritish uchun xodimlarning zamonaviy moliyaviy texnologiyalar, audit, soliq siyosati va hisobot tayyorlash jarayonlarida bilimlari oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; — T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 624 b.
2. Karaliyev T.M., Qurbonov R.B., Rustamov M.S. Banklarda buxgalteriya hisobi (Matn|: o ‘quv qo‘llanma / T.M. Karaliyev, R.B. Qurbonov, M.S. Rustamov. -Toshkent: «ZEBO PRINT», 2021. - 344 b.
3. Z.A.Umarov. Banklarda buxgalteriya hisobi (darslik). --T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», nashriyoti 2021, 612 b.
4. Bank for International Settlements. (2021). *Basel III: Finalising post-crisis reforms*. Available at: https://www.bis.org [Accessed 15 Mar. 2025].
5. Brown, P. and Ilyasova, G. (2020). Liability Reporting in Banks: IFRS Perspective. *International Journal of Accounting*, 55(2), pp. 45–68.
6. Mishkin, F. S. (2020). *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. 12th ed. Pearson Education.
7. Hull, J. (2022). *Risk Management and Financial Institutions*. 5th ed. Wiley Finance.
8. Rose, P. S. and Hudgins, S. C. (2018). *Bank Management & Financial Services*. 9th ed. McGraw-Hill Education.
9. https://scopus.com – Scopus ilmiy maqolalar bazasi (obuna orqali)
10. https://wos.com – Web of Science ilmiy maqolalar platformasi (obuna orqali)